

“O'zkimyosanoat” AJ hamda Pokiston Islom Respublikasining bir qator yirik kompaniyalari va davlat tashkilotlari bilan uchrashuvlar bo‘lib o‘tdi

// 28.10.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/uzkimyosanoat-azh-hamda-pokiston-islom-respublikasining-bir->



Joriy yilning 23-24-oktabr kunlari “O'zkimyosanoat” AJ delegatsiyasi Pokiston Islom Respublikasida bo‘ldi.

“O'zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisining o‘rinbosari Akobir To‘xtayev boshchiligida Pokiston Islom Respublikasining bir qator yirik kompaniyalari va davlat tashkilotlari bilan salmoqli muzokaralar hamda uchrashuvlar bo‘lib o‘tdi.

Pokiston Islom Respublikasi Oziq-ovqat xavfsizligi vazirining birinchi o‘rinbosari Ali Taxir bilan uchrashuv tashkil etilib, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mineral o‘g‘itlarning Pokistonga eksport hajmini kengaytirish va ushbu mahsulotlarga mavjud talab yuzasidan muntazam ravishda axborot almashishga kelishib olindi.

“Wah Nobel” kompaniyasi direktori Shiraz Ullah bilan bo‘lib o‘tgan muzokaralarda ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashda kimyo sanoatida faol hamkorlik qilish masalalari muhokama qilindi. Xususan, O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan metanol, nitrat ammoniy, selitra, natriy nitrat mahsulotlarining Pokiston Islom Respublikasiga eksportini amalga oshirish, logistika bo‘yicha aniq

mexanizmlar ishlab chiqildi.

"Nimir Group" kompaniyasi ijrochi direktori Zafar Mahmud bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda "O'zkimyosanoat" AJ sanoat zonalarida alkidli qatronlar, oleo-kimyo moddalari, sovun konsentrati, xlorli parafin mumi kabi kimyo mahsulotlari hamda sement qo'shimchalari, epoksid qoplamalar, ta'mirlash ohaklari, yelim va mastiklar kabi qurilish materiallarini ishlab chiqarish sohasidagi loyihalarni amalga oshirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

"Aziya Ariya" kompaniyasi va "O'zkimyosanoat" AJ o'rtasida mineral o'g'itlar eksport shartnomasi imzolandi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati